

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI SAVODXONLIK

*Umarov Nuriddin Yusuf o'g'li*

*Uchquduq tuman kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi*

*Fan nomi: Media va axborot savodxonligi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar sohasidagi savodxonlik, medianing tahlil qilinishi, axborot savodxonligi borasidagi tadqiqotlar, so‘nggi yillarda axborot oqimining tezlanishi haqida batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, axborot savodxonligi, media funksiyalari, texnologik ko'nikmalar, ommaviy axborot vositalari.

### **Kirish:**

Media savodxonlik media funksiyalarini tushunish, ushbu funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda qilish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u beradi. Media savodxonlik ham, axborot savodxonligi ham yoshlarda media va axborot makonida qo'llanilayotgan texnologiyalardan qat'iy nazar o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini ongli tarzda takomillashtirish va shakllantirish bilan bog'liq.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Ochiq media- va axborot tizimlari jamiyatni mas'uliyatli davlat boshqaruvi va o'z-o'zini boshqarish bilan ta'minlaydi, hamda demokratiyaning muhim qadriyatlariga bo'lgan oshkoralik, mas'uliyat va fuqarolar faolligini ta'minlashni kafolatlaydi. Axborot savodxonligi to'g'risidagi tadqiqotlarning ko'rsatishicha, texnologik ko'nikmalar yoshlarda kattalarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan ekan. Bu holat zamonaviy yoshlar texnika yangiliklari bilan bolaligidan boshlab tanishishi, ulardan shaxsiy yoki ijtimoiy maqsadlarda axborotni to'plashi, qayta ishlashi va uzatishda foydalanishi bilan bog'liq ekan. Shunday bo'lsa-da, yoshlar dalillar aniqligi va ishonchligini baholashida ayrim qiyinchiliklarga duch keladi.

Media savodxonlik iste'molchilarga axborot va ommaviy dasturlarda tashviqot, senzura yoki biron vaziyatni faqat bir tomondan ko'rsatish kabi holatlarga ommaviy axborot vositalarini nima majbur qilayotganligini tahlil etish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining egasi, ularning moliyalashtirish modeli kabi tarkibiy elementlarni tushunish imkonini yaratadi..

### **Natijalar:**

Oxirgi vaqtlarda axborot oqimining bir marotaba tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qancha salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi media savodxonlikka ega bo'lish zaruratini yanada oshirdi. An'anaviy shaklda media savodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil qila olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan. Hozir

media savodxonlik -axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir.

Media savodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari yordamida uzatiladigan hamma axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli tarzda yondashish hamdir. Media savodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan tarzda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish malakalarini rivojlantirish bo'lsa, muhim vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir.

### **Muhokama:**

Hozirgi vaqtda media, ya'ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san'atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet yordamida uzatilayotgan har qanday ma'lumot inson ongiga o'zining ma'lum bir ta'sirini o'tkazib, uning dunyoqarashini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning foydalanishi va hozirgi vaqtda mediata'lim, mediasavodxonlik, mediatanqid va mediani o'rganishga bo'lgan harakatning muhim maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy niyatlarda tarqatilayotgan axborotning mazmunini tushungan holda uni baholay olishdir.

Axborot yuzasida savodxon yoshlar odob axloq qoida va me'yorlariga tayangan holda axborotni qanday to'plash, undan foydalanish, uni sintezlash va tashkil qilishni yaxshi biladilar. Ushbu kompetensiyalar har qanday o'quv jarayoni kontekstida, shuningdek ta'lim va kasbiy sharoitga yoki o'z-o'zini takomillashtirishga nisbatan tadbiq etilishi mumkin.

### **Xulosa:**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungu kunda medianing tahlil qilinishi natijasida tilimizga kirib kelayotgan tushunchalar, ya'ni mediasavodxonlik, mediata'lim, mediani o'rganish va boshqalar bir- biri bilan bog'liq bo'lsa-da, olimlar ularni mazmunan bir-biridan farqlashga harakat qilmoqdalar. Mediasavodxonlik mediata'limning uzviy bog'liq qismi sanaladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Axborot texnologiyalari. A.T. Kenjaboev, B. Sulonov Toshkent-2019.
2. Do'stmuhammad X. "Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari" T., "O'zbekiston"- 2005.
3. T.Z. Teshaboyev Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiya. 2019.
4. Abduqodirov A.A. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. -T.: 2002.